

## **TIL – MADANIYAT – INSON: UYG‘UNLIK VA O‘ZARO TA‘SIR**

*Nuridinbayeva Nargizaxon Maxammadjon qizi*

*Namangan davlat universiteti O‘zbek tili ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12743676>

**Annotatsiya:** *ushbu maqola "til-madaniyat-inson" uchligining o‘zaro ta'siri, uyg‘unligi va o‘zaro aloqalarining tarixiyligi, madaniyatni tushunish, XX-XXI asrlarda yangicha yondashuv asosida tahlil qilish bayon qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *til, madaniyat, inson, qadriyat, milliy-madaniy birliklar, antroposentrik yondashuv, lisoniy madaniyatshunoslik.*

## **LANGUAGE – CULTURE – HUMAN: HARMONY AND INTERACTION**

*Nuridinbayeva Nargizaxon Maxammadjon qizi*

*Namangan state university doctoral student of the 2<sup>nd</sup> stage of Uzbek language*

**Annotation:** *This article describes the historicity of the interaction, harmony and interaction of the "language-culture-human" trinity, analysis based on a new approach in the 20th-21st centuries.*

**Key words:** *language, culture, human, value, national-cultural units, anthropocentric approach, linguistic cultural studies.*

## **ЯЗЫК-КУЛЬТУРА-ЧЕЛОВЕК: ГАРМОНИЯ И ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ**

*Нурдинбаева Наргизахон Махаммаджон қизи*

*Наманганский государственный университет, докторант 2 курса по специальности Узбекский язык*

**Аннотация:** *в данной статье описывается историчность взаимодействия, гармонии и взаимодействия триединства «язык-культура-человек», проводится анализ на основе нового подхода в XX-XXI веках.*

**Ключевые слова:** *язык, культура, человек, ценности, национально-культурные единицы, антропоцентрический подход, лингвокультурологи.*

Jahonda davlatlar va qadimiy shaharlar paydo bo‘lganligiga necha asrlardan oshdi. O‘sha davrdagi insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy boyliklar, ya‘ni uylar, mehnat qurollari, yozuv, tangalar, ming yillik tarixni o‘z ichiga olgan bitiklar insonlarning tevarak-atrof haqidagi tushunchalari va mehnat faoliyatlarini aks ettirgan. Odamlar o‘zlari yashab turgan joyning tabiati, tuzilishi, relyefi va joylashuviga bog‘liq tarzda narsalarga hamda obyektlarga nom berishgan.

Olimlar qadimgi manzilgoh qoldiqlarini o‘rganish jarayonida dehqonchilik, hunarmandchilik, bog‘dorchilik, me‘morchilik, haykaltaroshlik, tarixiy yurishlar va jangovar strategiyalar, qal‘alar, saroylar, yo‘l qurilishi, sopol, mis va temir buyumlar, kutubxona, ibodatxonalar, solnomalar hamda san‘at asarlari haqida ko‘plab ma‘lumotlarga ega bo‘lishgan. Jumladan, “Piramidalar matnlari”, “Marhumlar kitobi”, “Rigveda”, “Avesto” kabi qadimgi kitoblarda kishilik madaniyatining tarixi va ilm-fani haqida hikoya qilinadi. Ayniqsa, shaharlar, mehnat qurollari, tangalar, zeb-ziynatlar, g‘orlarga o‘yib ishlangan rasmlardan odamlarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari, diniy e‘tiqodi va marosimlar haqida ma‘lumotlarni o‘zida saqlab kelganligini, madaniyat va san‘atning ilk kurtaklari shakllana boshlaganligini bilsa bo‘ladi. Zargarlik buyumlari, me‘morchilik uslublari va tangalarga o‘yib yozilgan bitiklar orqali o‘sha davr tili, madaniyati va san‘atining shakllana boshlagan vaqtlarni aniqlash mumkin.

Xususan, yozuv – ma‘naviy madaniyatning oliy ko‘rinishi va voqelanishidir. Odamlar tosh, suyak, yog‘och, chinni, sopol, tanga, taxta va daraxt po‘stloqlariga mum, mis hamda hayvon terilarini qoplab marosim, afsona, mif, ov va jang taktikalarini aks ettirgan suratlarni chizishgan va ularning bayonini qayd etishgan.

Yozuvlar orqali bizgacha yetib kelgan qadimgi dunyo tarixi, madaniyati, yo‘qolgan shahar sivilizatsiyalari, insonlararo muloqot vositalari haqida qimmatli ma‘lumotlarni qayta tiklash uchun xizmat qiladi.

Qadimda hukmdorlar askarlarning kiyimlari, dubulg‘alari, qurol-yaroqlari va bayroqlariga davlat va din ramzlarini chizishga buyruq berishgan. Bu hodisalar semiotikaning paydo bo‘la boshlaganidan darak beradi. Asta-sekinlik bilan dunyo madaniyati taraqqiy etib, fanlarning paydo bo‘lishi va yuksalishiga olib kelgan.

Madaniy yodgorliklar orqali madaniyatning tilga doimo ta‘sir ko‘rsatganligiga guvoh bo‘lamiz, chunki insonlarning tafakkuri, dunyoni anglash tuyg‘ulari, ramzlar, miflar, e‘tiqod bilan bog‘liq tushunchalar tilda mujassamlashadi. Borliq haqidagi tasavvurlar, tushunchalar o‘z-o‘zidan emas, insonning hayot faoliyati davomida paydo bo‘ladi. Faoliyati davomida inson o‘zini o‘rab turgan olam

haqida ma’lumotlar to‘playdi va bu ma’lumotlarni tilda akslantiradi, madaniyat esa ushbu voqelikning ajralmas qismidir<sup>29</sup>.

Madaniyatni tushunish va aniqlashning bir necha yondashuvini V.A.Maslova “Lingvokulturologiya”<sup>30</sup> kitobida keltirgan, ya’ni quyidagicha:

1. Madaniyatning alohida elementlari va ko‘rinishlarini sanab o‘tuvchi tavsiflovchi – urf-odatlar, faoliyat, qadriyatlar va idealar va boshqalar.
2. Qadriyatga asoslangan, unda madaniyat odamlar tomonidan yaratilgan ma’naviy va moddiy qadriyatlar yig‘indisi sifatida talqini qilinadi.
3. Faoliyat, unda madaniyat inson ehtiyojlarini qondirish usuli, faoliyatning alohida turi sifatida tushuniladi.
4. Madaniyatni jamiyatda bajaradigan funksiyalari orqali tavsiflovchi funksionalist: information, moslashuvchi, kommunikativ, tartibga soluvchi, me’yoriy, baholovchi, integrativ, sotsiolizatsiya va boshqalar.
5. Madaniyatni matnlar majmuyi sifatida qaraydigan germenevtik.
6. Normativ, unga muvofiq madaniyat odamlar hayotini tartibga soluvchi me’yor va qoidalar yig‘indisi, turmush tarzi dasturi (V.N.Sagatovskiy).
7. Ruhiy.
8. Dialogik, bunda madaniyat “madaniyat muloqoti” (V.Biller) – o‘z subyektlari o‘rtasidagi muloqot shaklidir (V.Bibler, S.S.Averintsev, B.A.Uspenskiy).
9. Axborot.
10. Ramziy yondashuv madaniyatda ramzlardan foydalanishga qaratilgan.
11. Tipologik (M.Mamardashvili, S.S.Averintsev).

Til madaniyatga nisbatan madaniyatni to‘plash va uni meros qilish kumulyativ xususiyatiga ega bo‘ladi. Sepirning fikricha, madaniyat saqlanib qolishning asosiy shakllaridan biri maqollar, diniy kalimalar, xalq rivoyatlari, nasl-nasab shajarasi hisoblanadi. Tildagi tafovutlar madaniyatdagi farqli tafovutlarni ko‘rsatadi<sup>31</sup>.

Til inson tajribasini shakllantiruvchi ijtimoiy madaniy faktor sifatida xuddi madaniyat singari umumqabul qilingan, umumba’qullangan tushunchalarni ishlab chiqaradi (ishlab chiqadi). Zotan, aloqa-aralashuv (kommunikatsiya) o‘zaro tushunarli tushunchalarning mavjudligi va ularning kommunikatsiyasi ishtirokchilariga tushunarligi va ularning kommunikatsiya ishtirokchilariga tushunarligi evaziga ta’minlanadi<sup>32</sup>.

<sup>29</sup>Усмонов Ф. Тил ва тафаккур муносабати ва тилшуносликда антропоцентризм тамойили хусусида. // Илмий хабарнома АДУ, 2015. №2. – Б. 94.

<sup>30</sup> Маслова В.А. Лингвокультуроология. – Москва: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 12-13.

<sup>31</sup>Худойберганаева З.Н., Мамаражабов Б.Б. Тил ва маданият: ўзаро муносабат ва ўзаро таъсир масаласи. // ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ/СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ, 2016. №1. – Б. 32.

<sup>32</sup> Махмараймова Ш.Т. Лингвокультуроология. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 40

Til bevosita egasi bilan birga yashaydi. Agar til o‘z egasidan ajralib qolsa, o‘lik tilga aylanadi. Bunga misol tariqasida qadimgi fors, lotin, sanskrit, shumer, xett tillarini keltirish mumkin, ammo bu o‘lik tillar qadimgi tarixni, tilshunoslikni qayta tiklashda asosiy o‘ringa ega. Til o‘zida jamiyat taraqqiyotini, “xalq ruhi” (V. fon Gumboldt)ni, til egalarining o‘ziga xos intellektual qobiliyatlarini, g‘oyalari va qarashlarini, xulq me‘yorlarini va faoliyatini aks ettiradi.

Til va madaniyatning asosida inson omili yetakchi o‘rinda turadi. Ikki hodisa ham insonga bog‘liq tarzda yashaydi, rivojlanadi yoki butunlay yo‘q bo‘ladi (o‘lik tillar hukmron davrning qulashigacha mavjud bo‘lgan). “Til egasi” termini ko‘p davrlar mobaynida alohida yondashuv orqali tadqiq etilmagan. XIX asr o‘rtalaridagina madaniyat tushunchasi kengroq ma’noda, ya’ni inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan barcha narsalarga nisbatan ishlatila boshlandi. Bunday holatda madaniyat tushunchasi inson tomonidan yaratilgan, bokira tabiat ustiga qurilgan “ikkinchi tabiat” ma’nosini kasb etadi<sup>33</sup>.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dunyo hamjamiyatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar, globallashtiruv jarayonlari tezlashib fanlarning barcha jabhalarida tubdan yangilanish sodir bo‘ldi. Endilikda “shaxs omili” asosiy tendensiyaga ko‘tarildi, til bilan madaniyatning munosabatlari antroposentrik paradigma orqali o‘rganildi. Ayniqsa, milliy xarakter, milliy madaniyat, milliy an’analar va qadriyatlar masalalari lisoniy madaniyatshunoslikning tadqiq obyekti ga aylandi.

Har bir xalqning o‘tmishi, kundalik hayoti, yashash tarzi, olamning lisoniy manzarasi haqida tasavvurlari mujassamlashtiruvchi universal birliklari mavjud bo‘ladi. Xususan, paremiologik birliklar, ya’ni barqaror birikmalar, maqol, matal, aforizm kabi murakkab tuzilmalar umummilliy mentalitet yaratishda asosiy vosita hisoblanadi.

Frazeologizmlar tilning milliy-madaniy xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu ularni tarjima qilishda ko‘rinadi<sup>34</sup>. Masalan, *bir kesak bilan ikki qarg‘ani urmoq* ingliz tilida *kill two birds with one stone* iborasi bilan berilib, bir xil ma’noni anglatadi. Shunga o‘xshash iboralar ko‘plab uchraydi, ya’ni: *misi chiqmoq – let the cat out of the bag* → oshkor bo‘lib qolish; *ko‘z ochib yumguncha – in the blink of an eye* → birzumda; *tish tirnog‘i bilan – do something by the skin of your teeth* → qat’iy harakat qilmoq; *yettinchi osmon uchmoq – in seventh heaven* → xursand; *aytishga oson – easier said than done* → aytmoqqa oson kabilar badiiy nutqni tasvirlashda,

<sup>33</sup> Abdullayev M., Umarov E., Ochildiyev A., Yo‘ldoshev A., Abdullayev A. Madaniyatshunoslik asoslari. (Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma). – Toshkent: 2006. – B. 15.

<sup>34</sup> Баскаков Н.А., Содиков А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б. 114.

fikrlarni aniq ifodalashda ishlatiladi. O‘zbek tilshunoslikda aynan o‘zbek madaniyatini yaqqol ko‘rsatib turuvchi iboralar ham mavjud. *Belida belbog‘i bor, beshik ketdi, bir mayizni teng bo‘lib yeydigan, jonim tasadduq, kavushini to‘g‘rilab qo‘ymoq, kavushim ko‘chada qolgani yo‘q, mozor bosib kelgan* kabi iboralar boshqa tillarda qo‘llanmaydi.

Xullas, inson – til va madaniyatning asosiy markazida turuvchi, uni shakllantiruvchi negizdir. Til va madaniyat esa inson faoliyati, g‘oyalari va qarashlarini, milliy-madaniy merosini aks ettiruvchi, to‘plovchi, nomlovchi, tavsiflovchi, ma‘lumotlar omborini shakllantiruvchi va uni kelajak avlodga yetkazuvchi mexanizm.

### Adabiyotlar:

1. Усмонов Ф. Тил ва тафаккур муносабати ва тилшуносликда антропоцентризм тамойили хусусида. // Илмий хабарнома АДУ, 2015. №2. – 93-96 betlar.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
3. Худойберганова З.Н., Мамаражабов Б.Б. Тил ва маданият: ўзаро муносабат ва ўзаро таъсир масаласи. // ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ, 2016. №1. – 30-34 бетлар.
4. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 164 б.
5. Abdullayev M., Umarov E., Ochildiyev A., Yo‘ldoshev A., Abdullayev A. Madaniyatshunoslik asoslari. (Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma). – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 144 b.
6. Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – 191 б.